# “Parij bitimining 6-moddasi va Qo‘shma kreditlash mexanizmi (JCM)ni O‘zbekistonda amalga oshirish” mavzusida davra suhbati bo‘lib o‘tdi

// 02 March 2026 yil

https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/parij-bitimining-6-moddasi-va-qo-shma-kreditlash-mexanizmi-j




Toshkent shahrida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) hamkorligida Parij bitimining 6-moddasini amalga oshirish va Qo‘shma kreditlash mexanizmi (JCM)ni joriy etish masalalariga bag‘ishlangan davra suhbati tashkil etildi. Tadbirda davlat tashkilotlari, sohaviy idoralar hamda xalqaro ekspertlar ishtirok etdi.




Tadbirda “O‘zkimyosanoat” AJning Ekologiya va yashil iqtisodiyot bo‘limi mutaxassislari ham faol qatnashib, sohada amalga oshirilayotgan ishlar va istiqbolli loyihalar yuzasidan fikr almashdilar.




Muhokamalar davomida uglerod birliklari savdosini amaliyotga joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida dekarbonizatsiya loyihalarini kengaytirish, shuningdek, xalqaro iqlim mexanizmlaridan samarali foydalanish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi.


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI